XALQ DEPUTATLARI XONOBOD SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 15-iyul VI-59-72-1-30-K/24 Xonobod shahar

Xonobod shahridagi Geografik obyektlarga nom berish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi va “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qarorlariga hamda Kadastr agentligi huzuridagi respublika ekspert komissiyasining 16.05.2024 yildagi 05-19-01-1587-sonli yig‘ilish bayoniga va ekspert xulosasiga asosan xalq deputatlari Xonobod shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Xonobod shahar komissiyasining 2024-yil 27-iyundagi aloqa xati inobatga olinsin.

2. Shahardagi majud 7 ta qabriston, 1 ta ziyoratgoh, 1 ta maydon va 2 ta istirohat bog‘larining normallashtirilgan nomlari ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi shahar bo‘limi shahar Obodonlashtirish boshqarmasi bilan birgalikda:

Geografik obyektlarning tasdiqlangan nomlari barcha hujjatlarda birxillashtirilsin va ushbu nomlar aks etgan peshlavhalar va boshqa ko‘rsatkichlardagi yozuvlarni davlat tilida (lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida) yozilishini ta‘minlansin.

Belgilansinki, geografik obyektlarning tasdiqlangan nomlari:

o‘z faoliyatini amalga oshirayotganda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan;

o‘quv nashrlarida, kartografik, ma’lumotnoma, ensiklopedik nashrlarda, e’lonlar, reklama, yo‘l belgilari, pochta jo‘natmalarida foydalanish uchun majburiydir.

4. O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi shahar bo‘limi (A.Teshaboyev), Kadastr agentligining shahar bo‘limi (Sh.Yuldashev), shahar Soliq inspeksiyasi (X.Egamberdiyeva), shahar Statistika bo‘limi (M.Soliyev), shahar Obodonlashtirish

boshqarmasi (I.Yakubov) mazkur qarorga asosan tegishli hujjatlarga o‘rnatilgan tartibda o‘zgartirishlar kiritilsin hamda bu borada zarur choralar ko‘rilsin.

5. Shahar hokimligi Matbuot xizmati (Jabaraliyev)ga:

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan so‘ng kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Ta′lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi X.Asqarova va shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish, ma’naviy va ma’rifiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi TAJIBAYEV MASH’AL XURMAMATOVICH

Xalq deputatlari Xonobod shahar
Kengashining
2024-yil 15-iyuldagi
VI-59-72-1-30-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Xonobod shahrida mavjud geografik ob’yektlarning nomlari davlat reestri bazasidagi mavjud nomlar bilan solishtirish natijasida davlat reestriga kiritilmagan (yoki boshqa nomlar kiritilgan) obyektlar nomlari

T/r	Geografik ob’yektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik ob’yektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh
1	2	3	4	5	6
1.	Qabriston	Xidirsha MFY	Nomsiz qabriston	Xidirsha	Hududdagi “Xidirsha” mahallasi nomi bilan bog‘liq
2.	Qabriston	Mehmonobod MFY	Nomsiz qabriston	Mehmonobod	Hududdagi “Mehmonobod” mahallasi nomi bilan bog‘liq
3.	Qabriston	Fozilmon MFY	Nomsiz qabriston	Fozilmon	Hududdagi “Xidirsha” mahallasi nomi bilan bog‘liq.
4.	Qabriston	Xonobod MFY	Nomsiz qabriston	Shahar Markaziy qabristoni	Shaharning markazida joylashgan
5.	Qabriston	Teyit MFY	Nomsiz qabriston	Teyit	Hududdagi “Teyit” mahallasi nomi bilan bog‘liq.
6.	Qabriston	Teyit MFY	Nomsiz qabriston	Xristian	Xristian diniga mansublar dafn etiladi
7.	Qabriston	Kampirrovvot MFY	Nomsiz qabriston	Kampirrovvot	Hududdagi “Kampirrovot” mahallasi nomi bilan bog‘liq.
8.	Ziyoratgoh	Mehmonobod MFY	Nomsiz ziyoratgoh	Fozilmon ota	Qadimdan hududdagi aholi shunday nom bilan atagan.
9.	Istirohat bog‘i	Anhor MFY	Nomsiz istirohat bog‘i	“A.Navoiy”	Qadimdan hududdagi aholi shunday nom bilan atagan.

10.	Istirohat bog‘i	Xontoq MFY	Nomsiz istirohat bog‘i	“Z.M.Bobur”	Qadimdan hududdagi aholi shunday nom bilan atagan.
11.	Maydon	Xontoq MFY	Nomsiz maydon	Shohsupa	Qadimdan hududdagi aholi shunday nom bilan atagan.